



TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-iyun holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vog'ar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxonona



Unitar korxonona



Xususiy korxonona



Aksiyadorlik jamiyati




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
ming birlik



xususiy korxonona
ming birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'asis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'asis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-may oylarida, ming birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yilning yanvar-may oylarida 5 717 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4 561 ta, xususiy korxonalar – 774 ta, oilaviy korxonalar – 225 ta, muassasalar – 68 ta va boshqalar – 89 tani tashkil etdi.

Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ming birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,8** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




2,8 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



4,6 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




10,0 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **7,6** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



4,5 foizga oshdi




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, ming birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,8** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




21,0
foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




24,0
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




1,4
martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
31,7 foizga oshdi



Xususiy korxonalar



12,0
foizga oshdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, ming birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




25,8
foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




29,1
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




1,5
martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **33,3** foizga oshdi




Xususiy korxonalar



17,5
foizga oshdi




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra 6 757 tani tashkil etib, ulardan 6 484 tasi yoki 95,9 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1,1 mingtaga yoki 121,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-may oylarida 485 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	6 484	2 723	3 761
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	212	78	134
Bektemir	152	83	69
Yunusobod	851	365	486
Mirzo Ulug'bek	804	366	438
Mirobod	1 107	352	755
Shayxontohur	460	228	232
Olmazor	359	189	170
Sirg'ali	282	147	135
Yakkasaroy	1 015	389	626
Yashnobod	510	237	273
Chilonzor	732	289	443

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod 1 107 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy 1 015 ta (15,6 %) hamda Yunusobod 851 tani (13,1 %) tumanlarida tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Sirg'ali – 282 ta (4,3 %), Uchtepa – 212 ta (3,3 %) hamda Bektemir – 152 ta (2,3 %) tumanlarida tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod (13,2 %), Chilonzor (12,8 %), Mirzo Ulug'bek (11,1 %), Olmazor (10,2 %), Shayxontohur (9,8 %), Uchtepa (9,3 %), Yakkasaroy (8,7 %), Mirobod (8,7 %), Yashnobod (7,7 %), Sirg'ali (6,1 %) hamda Bektemir (2,4 %) tumanlarida tashkil etgan

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-may oylaridayangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Chilonzor (12,6 %), Yunusobod (11,9 %), Uchtepa (11,9 %), Mirzo Ulug'bek (10,8 %), Shayxontohur (10,2 %), Olmazor (9,6 %), Yashnobod (8,0 %), Mirobod (7,6 %), Yakkasaroy (7,5 %), Sirg'ali (7,2 %) hamda Bektemir (2,7 %) tumanlarida tashkil etgan



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI', and the UZSTAT logo. A navigation menu at the top lists 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is titled 'INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari'. A dropdown menu is open, listing services: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form with the following fields: 'STIR kodini kiriting' (with a gear icon), 'Rasmdagi kodni kiriting' (with a document icon), and a 'Qidiruv' button. A note below the form reads 'Kodni yangilash uchun rasimga bosing'. The left sidebar contains 'RASMIY STATISTIKA' with links for 'E'lon qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', 'Makro'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The right sidebar contains 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' with links for 'Aholini ro'yxatga olish 2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-revizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

tel.: 71 230-88-31